



“ODISSEYA” VA “ALPOMISH” DOSTONLARING O‘XSHASH JIHATLARI TAHLILI

Boltayeva Iroda

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15179799>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil
Ma’qullandi: 05- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 09- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Odissey, Alpomish, epik an’ana, ramziy mohiyat, qahramonlik sinovlari, yayondoqlik, alplar, o’n ikki halqa, barchinning to’rt sharti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada “Odisseya” va “Alpomish” dostonlarining syujet qurilishi, qahramonlarning sinovlardan o’tish jarayoni va epik motivlarning o’xshash jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, Penelopa va Barchinoy tomonidan talabgorlar uchun qo’yilgan sinov shartlarining mazmuni, ularning ramziy mohiyati hamda epik an’analar bilan bog’liqligi hamda ikki dostonning mifologik asoslari, sinov motivlari va sadoqat tushunchasi o’zaro taqqoslanadi.

“Odisseya” dostoni qadimgi yunon adabiyotining nodir yodgorliklaridan biri bo’lib, u Homer tomonidan yaratilgan va asosan Troya urushidan so’ng Odissiy boshidan kechirgan sarguzashtlar haqida hikoya qiladi. Doston epik an’analar va mifologik tasavvurlar asosida qurilgan bo’lib, unda qahramonning aql-zakovati, jasorati va sabr-toqati alohida ta’kidlanadi. “Alpomish” dostoni esa turkiy xalqlar og’zaki ijodining eng muhim namunalaridan biri bo’lib, unda bosh qahramon Alpomishning jasorati, vafodorligi va sadoqat sinovlaridan qanday o’tishi tasvirlanadi. Ushbu epos turkiy madaniyatning qahramonlik an’analari va oilaviy sadoqat qadriyatlarini o’zida mujassam etgan. Har bir xalq og’zaki ijodi, xususan, eposlari orqali o’z madaniyati va qadriyatlarini aks ettiradi. “Odisseya” va “Alpomish” dostonlari turli sivilizatsiyalar mahsuli bo’lsa-da, ularda epik an’analarining mushtarak jihatlari kuzatiladi. Shu bilan birga ularning o’xshash tomonlari ham e’tiborni tortadi.

“Odisseya” va “Alpomish” dostonlari o’zaro bog’liq bo’lmagan madaniyatlar mahsuli bo’lsa-da, ulardagi asosiy syujet chizig’i o’xshash:

1. Ikkala doston ham qahramonning uzoq yillar davom etgan sarguzashtlari va uyga qaytishi bilan yakunlanadi.
2. Asosiy qahramonlar (Odissey va Alpomish) jismoniy va ma’naviy sinovlardan o’tishadi, o’z vafodorliklari va kuch-qudratini isbotlashlari lozim bo’ladi.
3. Asarlarda bosh qahramonlarning juftlari (Penelopa va Barchinoy) yillar davomida sabr-matонат bilan o’z juftlarini kutadi.

Dostonlardagi muhim o’xshashliklardan biri – bosh qahramonning yo’qligida uning rafiqasi tomonidan qo’yilgan sinov shartlaridir. “Odisseya”da Penelopa sovchilardan kamon bilan o’qni o’n ikki halqa ichidan o’tkazishni talab qiladi. Alpomish”da esa Barchinoy o’zining kimga tegishini hal qilish uchun kamon bilan bog’liq sinov qo’yadi. Endi esa shularni ko’rib

chiqsak. Sadoqatda tengsiz Penelopa Odissey yo'ligida uyiga kelga sovchilarni yigirma yil turli bahonalar bilan ortiga qaytarishga muaffaq bo'ladi. Nihoyat Odissey uyiga qaytganida Afina Penolopaning ko'ngiga shunday bir shartni berishini soladi u quyidagicha: "Ey akobir kuyovlar, siz quloq bering mening gapimga: Sizlar bunda kun-uzzukun ishrat qilib, uzoq muddatga vatanidan olis yoqda qolib ketgan erim mulkini xonavayron qilmoqdasiz, bo'lmasa ham bunga haqqingiz. Niyatingiz – meni faqat rozi qilish manfur nikohga – majbur bo'lsam ham tanlashga ichingizdan birontangizni. Mana, bugun siz o'zingiz bajarursiz kuyov tanlashni. Mayli, boshlang bellashuvni, mana, yutuq qarshingizda. Bu Odisseyning kamonidir: kimki uning chillasin tortib, bog'lasa va otgan o'qi o'n ikkita halqa ichidan hech biriga tegmay o'tsa, men baxtimni topib oila qurgan aziz va charog'on bu go'shadan, garchi bir umr Uni qo'rsab o'tsam hamki, boshim olib chiqib ketaman o'shal g'olib bo'lgan mard-la."¹ Bu Penolopaning kuyovlikka nomzodini qo'yganlarga qo'ygan sharti edi. Penelopa atigi bitta shart qo'llaydi, lekin Barchinoy qalmoq alplariga, hatto Alpomishga, to'rtta shart qo'yadi. Ular: ot choptirish, Boboxon tog'ida poyga qilish, yoy tortish va kurash tushish shartlarini qo'yadi. Bu shartlarning 3-sharti Penelopa qo'ygan sharti bilan aynan bir xil tugallanadi. Har ikkala dostonidagi kamon bosh qahramonlarga tegishli bo'lib, hech bir raqib undan foydalanishga muaffaq bo'lmaydi. Dostonlarning ikkisida ham bosh qahramonlar ushbu shartda qatnashadilar.

"Odissey" dostonida shart bajarish jarayonida o'zini tanitmay turadi. Uni faqat o'g'li va cho'chqaboqari bilishadi xolos. Shunda shoh Odissey kuyovlarga: "Kamonni olinglar-da ko'rsatinglar qudratingizni. Men ham sinab ko'rmoqchiman kuchimni bu musobaqada."² – deydi. Kuyovlar uni faqirona qiyofada ko'rib uni mensishmaydi va shartni boshlash uchun kamonni moylay boshlaydilar. Talobgarlarning ichidagi eng qudratli kuyovlar – Antinoy va Yevrimey kamondan o'q otish tugul uchini ham qayira olishmagach, Odissey ustidagi yopinchi'ini olib tashlaydi va tezlik bilan kamonga ipini ilib o'q uzgan zahoti barcha halqalardan hech bittasi ham shikastlanmay uchib o'tib, tog'ri nishonga tegadi. So'ngra Odissey tuzgan rejaga ko'ra barcha kuyovlardan qutulishadi. Uning kamoni ham tasodifiy bir qurol emas, balki faqatgina haqiqiy egasining qo'lida ishga tushadigan, haqiqatning yuzaga chiqishini ta'minlaydigan kuch vositasi sifatida tasvirlanadi.

"Alpomish" dostonida ham 3-shart Oyna ko'li, Chilbir cho'lida bo'lib o'tadi. Bu musobaqada barcha alplarning otgan o'qlari nishonga tegmay, biri pasdan biri balanddan o'tib ketadi. Ko'aldoshning yoyi sinib ketadi va o'n to'rt botmon birinchdan bo'gan parli yoyini tortib, belgilangan maziilga yetkazgan Alpomish g'olib bo'ladi.

"Odissey" va "Alpomish" dostonlari har xil madaniyatlarda yuzaga kelgan bo'lsa-da, ulardagi talabgorlarni sinashga oid epizodlarning o'xshashligi shuni ko'rsatadiki, xalq eposlarida umumiy epik qonuniyatlar mavjud. Penelopa va Barchinoy tomonidan qo'yilgan sinovlar faqatgina jismoniy kuchni emas, balki haqiqiy juftning o'z maqomini tiklashiga asoslangan ramziy vosita hisoblanadi. Ushbu dostonlar qahramonlik va sadoqat g'oyalarini tarannum etishi bilan bir-biriga yaqin turadi va ular xalq og'zaki ijodining o'ziga xos universal qonuniyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Alpomish" xalq og'zaki ijodi Toshkent – 2019
2. Homer "Odesseya" Toshkent – 2024
3. Fayzulla Boynazarov jahon adabiyoti Toshkent-2006
4. "Alpomish" – o'zbek xalq qahramonlik eposi", T., 1999. 3.
5. Omonilla Madayev, Tojixon Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi T-2010
6. <https://muhaz.org/ozbekiston-republikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-ulu-v2.html?page=26>



INNOVATIVE
ACADEMY